

# **Jarqo'rg'on tumani “Obodguzar” mahallasida monomarkaz ish boshladi**



Viloyat hokimi monomarkazning ochilish marosimida ishtirok etib, bu yerda yaratilgan sharoitlar, ish o'rnlari, kasb-hunar o'rgatish to'garaklari faoliyati bilan tanishdi.

Monomarkazda avtomobillar ustasi, chilangarlik, tikuvchilik kabi qator kasblar bo'yicha ishsiz fuqarolarni o'qitish yo'lga qo'yilgan. Viloyat rahbari shu yerlik nuroniylar, kasb-hunar o'rganishga kelgan fuqarolar bilan suhbatlashdi. Mas'ullarga monomarkaz faoliyatini kengaytirish, talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish kurslarini tashkil etish, kasb-hunar o'rgangan ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni belgilab berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)